

«QUBLA ARAL BOYI ARXEOLOGIYASI, ETNOGRAFIYASI, DEREKTANIWI, TARIYXNAMASI HÁM TARIYXINIŃ AKTUAL MÁSELELERI» ATAMASINDA XALIQ ARALIQ ILIMY-TEORIYALIQ KONFERENCIYA MATERIYALLARI

QOZOG`ISTON VA QORAQALPOG`ISTONDA 1928-1931-YILLARDAGI XALQ QO`ZG`OLONLARI

N. Zinatdinov

*Qoraqalpoq davlat universiteti
tayanch doktoranti*

1920-yillarning oxiri va 30-yillarning boshlari Qozog'iston va Qoraqalpog'iston tarixining qiyin va murakkab davrlaridan biridir. Bu yillarda yer-suv, kollektivlashtirish, quloq xo'jaliklarini tugatish siyosati, aholidan soliq-yig'inlarning katta miqdorda undirilishi natijasida ko'plab qurolli namoyishlar ochiq norozilik shakllarda bo'lib o'tgan. Aynan ushbu davr oralig'ida ateistik harakatning keng miqyosda kuchayishi natijasidaboshqaruv Sovet hukumati tomonidan o'ta reaksiyon va shafqatsiz tomonga o'zgargan davr hamdir. Hukumatning olib borgan bunday siyosati oddiy xalq noroziligiga sabab bo'ldi. 1928-yildan boshlab Qozog'iston hududida (Qoraqalpog'iston 1925-1930-yillarda Qozog'iston tarkibida bo'lgan) qurolli qo'zg'olonlar boshlandi. Asosan 1928-1931-yillar davomida 397 marta qo'zg'olon ko'tarilgan.

Qoraqalpog'istonda 1929-yil sentyabr oyida yirik qo'zg'olon boshlandi. 1929-yil iyul oyida Abdujalil maqsum Ismatullayev, Qdir qozi Davletnazarov, Barliqbay Nurumov, Ubbi va Ajim Ibrohimovlar, Xojahmet Yernazarov tashabbusi bilan Sovetlarga hujum qilishga tayyorgarlik ko'rayotgan Junaydxon bilan aloqalar o'rnatilganligi haqida mish-mishlar tarqaladi. Bundan tashqari, Tashovuz okrugida katta kuchlar mavjudligi, bo'lajak yer-suv islohotlari munosabati bilan boylar va eshonlarning Sibirga ko'chirilishi va ularning mol-mulki musodara qilinishi haqida xalq orasida gap tarqaladi.

1929-yil avgust oyining oxirida OGPU (Birlashgan davlat siyosiy boshqarmasi) Chimboy, Kegeyli va Taxtako'pir tumanlari aholisining qo'zg'olonga tayyorlanayotganini va ularning qoraqalpoqlarning xitoy, qipchoq, mang'it, bessari, qoramoyin qavmlari bilan aloqalarni o'rnatishga intilishganini aniqlachadi.

1929-yil 18-21-sentabr kunlari "Chimboy aksilinqilobiy tashkiloti"ning 44 a'zosidan 35 kishi hibsga olingan. To'qqiz kishi, shu jumladan Ismatullayevlar Abdujalil va Abdukarim, Davletnazarov Qdir-qozi, Nurumov Barliqbay va boshqalar topilmaydi. Ularning rahbarligida qurolli chiqish boshlanadi. Chimboy va Taxtako'pir tumanlaridagi ovullardan 60 kishini jalb qilib, ularning yarmi uch qatorli miltiq, berdanka va ov miltiqlari bilan qurollangan Ismatullayev Abdujalil maqsum va uning tarafdorlari 26-sentyabr kuni Andat ko'l degan joyda to'planishadi [1]. U yerda umumiy rahbarlik

«QUBLA ARAL BOYI ARXELOGIYASI, ETNOGRAFIYASI, DEREKTANIWI, TARIYXNAMASI HÁM TARIYXINIŃ AKTUAL MÁSELELERI» ATAMASINDA XALIQ ARALIQ ILMY-TEORIYALIQ KONFERENCIYA MATERIYALLARI

Abdujalil maqsumga yuklatiladi. Arxiv hujjatlarda uning xon etib saylangani qayd etilgan. Otryadning harbiy qo'mondonligi Nurumov Barliqbayga topshiriladi, Nurullayev Karimberdi oxun esaqozi etib saylanadi.

1929-yil 26-sentabrda Chimboy shahrida bo'lgan OGPU boshlig'i Belonogov "Chimboy aksilinqilobiy tashkiloti" to'g'risidagi ish bo'yicha operatsiya va tergovga rahbarlik qilish uchun kelganida, Taxtako'pir yaqinidagi Andat ko'l joyida qurolli chiqishlar bo'lishi haqida ma'lumot oladi. O'sha kuni kechki soat 11 da Taxtakupirga OGPU Chimboy tumani bo'yicha vakili Gryaznov boshchiligidagi otryad yuboriladi. Gryaznov boshchiligidagi otryad yuborilganidan so'ng, Belonogov ozodlikda qolgan shaxslarning Taxtako'pir tuman markaziga hujum qilish niyati haqida qo'shimcha ma'lumot olgan edi. Shuning uchun Gryaznov otryadi orqasidan 26-sentabrdan 27-sentabrga o'tar kechasi Chimboy tuman militsiyasi boshlig'i Dedov boshchiligidagi 20 kishidan iborat ikkinchi kommunarlar otryadi Gryaznov otryadi bilan birlashish vazifasi bilan yuboriladi.

27-sentabr kuni soat 12 da Taxtako'pirga hujum uyushtirildi, unda 30 ga yaqin qurollangan kishi ishtirok etdi. Bozor maydonida bo'lgan 150 ga yaqin dehqonning bir qismi tayoq bilan qurollanib, qo'zg'olonchilarga qo'shilishadi. Natijada, VKP (b) tuman qo'mitasi, tuman ijroiya qo'mitasi, tuman komsomoli mag'lub bo'ladi. Qo'zg'olonchilar tomonidan xalq nazoratchisi Kutlumuratov, xizmatkor Mambetaliev, batrak Ibragimov, chigirtkaga qarchi kurashish instruktori Soshnikov, xizmatchi Shpilokovanning xotini va bolasi, xizmatkor Laguninalar o'ldirilgan edi [2]. Jangovar qobiliyati yetarli bo'lmaganligi sababli Dedov otryadi kommunarlar qochib ketishadi, Dedovning o'zi esa o'ldiriladi. Gryaznovning Andat ko'lga ketayotgan otryadi yo'lda qurolli guruh Taxtako'pirga aylanib ketgani haqida xabar olgach, darhol otryadni orqaga buradi va 4 soat davomida janglar bo'ladi. Gryaznov otryadi hujum qilgan yigitlarni Taxtako'pirdan quvib chiqarishga muvoffaq bo'ladi. Taxtako'pirda Gryaznov otryadi tomonidan hujum va qo'zg'olononda qatnashgan 44 kishi batraklar va kommunarlar yordamida hibsga olinadi [3].

Taxtako'pir qurolli qo'zgo'lonini bostirish bo'yicha davlat xavfsizlik organlarining barcha faoliyatining mantiqiy yakuni uning ishtirokchilari ustidan sud hukmi bo'lib, u bevosita respublika partiya instansiyalari rahbarligida amalga oshiriladi. Taxtako'pir ishi bo'yicha 41 kishi jinoiy javobgarlikka tortilgan. Ulardan Qozog'iston ASSR Oliy sudining sayyor sessiyasi 16 kishini eng yuqori darajada – o'ldirishga, qolganlarini esa turli muddatlarga ozodlikdan mahrum qilishga hukm qiladi [4].

«QUBLA ARAL BOYI ARXEOLOGIYASI, ETNOGRAFIYASI, DEREKTANIWI, TARIYXNAMASI HÁM TARIYXINIŃ AKTUAL MÁSELELERI» ATAMASINDA XALIQ ARA LIQ ILIMY-TEORIYALIQ KONFERENCIYA MATERIYALLARI

Qurolli namoyishlarning yana biri 1929-yil sentabr oyida Qozog'istonning Sirdaryo okrugida bo'lib o'tadi. Qurolli otryadning soni 500 tagacha sarbozni tashkil etdi, qo'zg'olonni Tolib Musabayev boshqardi. Bir kun ichida Xodjikent tumani markazi egallangan, barcha sovet muassasalari tarqatilgan va hujjatlar yo'q qilingan edi. Qo'zg'olonchilarga yordam berish uchun Islombek boshchiligidagi Qirg'izistondan kichik bir otryad kelgan edi. Hukumat qo'shinlari bilan Brichmolla qishlog'i yaqinida yirik ikkita to'qnashuv yuz bergan edi.

1929-yil 3-noyabrda Qostanay viloyatining Batpakkara tumanida qo'zg'olon sodir bo'ladi. Qo'zg'olonchilarga sovet hokimiyatining sobiq ishchi rahbarlari: Bekejanov, Kadiyev, Smagulov, Barmakov boshchilik qilishdi. Ular boshqaruvni qo'lga olib har bir ovulda uchta oqsoqolni tanlaydi. Ular xon qilib Omarbay Barmakovni sayladilar. Ushbu davr haqidagi hujjatlarda ko'rsatilganidek, qo'zg'olonda hatto 3 kommunist, 12 komsomolchi, 5 ta qishloq kengashi a'zosi vama halliy kambag'allar uyushmalarining ikki raisi ishtirok etgan. Umumiy 500 ga yaqin faol ishtirokchilar bor edi. Ular Qostanayga hujum rejalashtirilgan edi.

1929-yil 9-noyabrda qo'zg'olon bostiriladi. Qo'zg'olonchilardan 115 kishi o'ldirildi, 170 kishi uzoq muddatga qamoq jazosiga hukm qilindi, 28 kishi 3 yilga Qozog'istondan tashqariga surgun qilindi, 17 kishi shartli ravishda qamoq jazosiga hukm qilindi, 194 kishi esa boylar va mullalar ta'siri ostida bo'lganligi uchun javobgarlikdan ozod qilindi.

Sovet hukumatiga qarshi namoyishlar shu bilan tugamadi. 1930-yil 7-fevral kuni Sirdaryo viloyatida siyosiy mahbuslar uchun lagerlar qurilishi boshlanganidan so'ng, qurolli namoyishyana sodir bo'ldi. Qo'zgo'lonchilar o'zlariga Sultanbek Sholakulini xon qilib sayladi. Ammo qo'zg'olon haqida oradan bir hafta o'tib, hukumat xabar topadi. Natijada, qo'zg'olonchilar va OGPU otryadlari bilan janglar boshlanadi. Qo'zg'olonchilarga qarshi artilleriya, pulemyotlar va samolyotlar ishlatilgan. Janglar davomida 400 ga yaqin odam, shu jumladan tinch aholi halok bo'ladi. Shu bilan birga, Serikxon boshchiligidagi qo'shni hududlar dehqonlari namoyishga chiqishadi, ammo ular ham mag'lub bo'lishadi.

1930-yil 25-fevral kuni Aqtobe okrugining Irg'iz tumanida yangi tartiblarga qarshi namoyish boshlanadi. Olti birlashgan qurolli otryadni Ayjarkin Kanayev boshqargan. Uning asosiy jangovar kuchlari Qostanay okrugining Jitikarin tumanining janubida to'plangan. Ushbu qo'zg'olonning ko'lami shunchalik keng ediki, hokimiyat uni bostirish uchun 8-piyoda diviziyasi kuchlarini, samolyotlarni va hatto zirhli poezdni tashladi. 1930-yil mart oyi davomida janglar bo'lib o'tdi, ammo qo'zg'olonni bostirishning iloji bo'lmadi. 700 ga yaqin sarbozlar Turgay va Karsakpayda to'planishadi. Aynan o'sha

«QUBLA ARAL BOYI ARXEOLOGIYASI, ETNOGRAFIYASI, DEREKTANIWI, TARIYXNAMASI HÁM TARIYXINIŃ AKTUAL MÁSELELARI» ATAMASINDA XALIQ ARALIQ ILMYIY-TEORIYALIQ KONFERENCIYA MATERIYALLARI

yerdan ular hokimiyat bilan muzokaralarga kirishib, mol-mulknı musodora qilishni, chorva mollari va mol-mulklarnı qaytarishni, chorvadorlardan non solig'ini bekor qilishni talab qilishadi. Ularning shartlari og'zaki qabul qilindi. Ammo 30-aprel kuni sobiq qo`zg`olonchilar qurollarini topshirib, tinch hayotga qaytishni boshlaganlarida, ular hibsga olinadi.

Qo'zg'olonlar qatorida Sharqiy Qozog'istonning Ust-Kamenogorsk tumani Zubovka, Kondratievka, Vasilevka qishloqlaridagi rus dehqonlari o'rtasida sodir bo'lgan namoyishni ham aytib o'tish kerak. Namoyish Tolstuxov tomonidan boshqarilgan. Ammo tezda tarqatilgan. Tolstuxov esa hibsga olingan edi. Qo`zg`olonchilarning bir qismi halok bo'lgan, bir qismi esa Xitoyga ketgan edi. 1930-yilning bahorida Karatalskiy tumanida ham ana shunday dehqonlar norozilik bildirishgan.

Sovet hukumatiga qarshi eng katta chiqish 1931-yilning bahorida boshlandi, u tabin va aday qozoq qavmlarning "Mang'ishloq isyoni"deb nomlandi. Ushbu qavmlarning ovullari Turkmaniston, Qoraqalpog'iston va Kavkazga ko'chib o'tishni boshlaydi. Hukumat bunga to'sqinlik qila boshlagandan keyin, xalq qo'llariga qurol olib, qo`zg`olonga chiqa bolshlaydi. Qizil armiyaning muntazam qo`shini qo`zg`olonchilarga qarshi qo`yilgan edi. Ikkala tomondan ham katta yo'qotishlar bilan janglar 1931-yil sentabrgacha davom etadi. Qo'zg'olon shu yilning o`zida bostiriladi, uning ishtirokchilari bir qismi o'ldirildi, bir qismi hibsga olindi vayana bir qismi esa Turkmaniston, Eron va Afg'onistonga ketadi. Aytishimiz kerakki, 1931-1932-yillarda Qozog'iston hududidan bir milliondan ortiq qozoqlar va boshqa millat vakillari Eron, Xitoy, Mo'g'uliston, Turkiyaga ko'chib ketishgan. Xuddi shunday hodisalar nafaqat Qozog'istonda, balki butun sovet mamlakatida ham kuzatilgan edi [5].

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Allaniyazov T. Voorujennoe vistuplenie v Taxtakupire Karakalpaskoy avtonomnoy oblasti//<https://www.caa-network.org/archives/24017/vooruzhennoe-vystuplenie-v->
2. Qoraqalpog'iston Respublikasi Markaziy davlat arxivi. F.551. ro`yxat.1. ish- 1158. bet-13.
3. Qoraqalpog'iston Respublikasi Markaziy davlat arxivi. F.551. ro`yxat.1. ish-1158. bet-13.
4. Qoraqalpog'iston Respublikasi Markaziy davlat arxivi.F.1. ro`yxat-2. ish-660. bet-3.
5. <http://www.centrasia.ru/newsA.php?st=137887524>